

YEVROPA QIT'ASI DAVLATLARI DEMOGRAFIK VAZIYATINING IQTISODIY-GEOGRAFIK JIHATLARI

Berdikulova Muxayyo

QarshiDU geografiya kafedrası o'qituvchisi

Abdishukurova Malika

QarshiDU geografiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoda o'ziga xos demografik vaziyatga ega bo'lgan Yevropa qit'asi davlatlari o'rganilgan bo'lib, ularda kuzatilayotgan geodemografik jarayonlar xususiyatlari bayon qilingan. Shuningdek, mintaqadagi murakkab demografik ko'rsatkichlar statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qit'a, mintaq, demografik vaziyat, tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish, migratsiya, aholi qarishi, demografik yuk.

Ma'lumki, Yevropa iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlangan bo'lib, ishlab chiqarish, sotsial va xizmat ko'rsatish sohalarida aholi bandlik darajasining yuqori ekanligi va tabiiy ko'payish koeffitsiyentining manfiy ko'rsatkichga ega ekanligi mintaq demografik vaziyatini ifodalab beradi. Yevropa dunyoda demografik jarayonlari murakkab kechayotgan hudud hisoblanadi. Bu regionda har 1000 kishiga to'g'ri keladigan tug'ilishlar soni eng kam va tabiiy ko'payish koeffitsiyenti manfiy (-) bo'lgan eng ko'p davlatlar joylashgan. 2024-yilda Yevropada aholi sonining manfiy tabiiy kamayishi kuzatildi. Countrymeters.info ma'lumotlariga ko'ra, tug'ilganlar 8125093 nafarni, o'limlar esa 8281791 nafarni tashkil etdi, bu esa aholining tabiiy kamayishiga olib keldi -156698 nafar. 2024-yilda Yevropada migratsion o'sish 903734 kishini tashkil etdi.

Yevropa dunyoda iqtisodiy, fan-texnika va madaniy salohiyat ulkanligi va serqirraligi, industrial tarmoqlar, aholi va shaharlarning juda yuqori darajada konsentratsiyalashganligi, rivojlangan infratuzilmasi bilan alohida ajralib turadi. Yevropada qadimgi va yangi davrlar, an'anaviy sohalar va yangi texnologiyalar, tarixiy shaharlar va o'ta madaniy landshaftlar o'zining yorqin ifodasini topgan.

Yevropa hududi G'arbiy, Shimoliy, Janubiy va Sharqiy Yevropaga taqsimlanadi. Regionlar ichida iqtisodiy jihatdan G'arbiy va Shimoliy Yevropa yuqori darajada rivojlangan. Dunyo siyosiy xaritasida Yevropaning o'ziga xos o'rni bor. 1980-yillarida bu yerda 32 ta suveren davlat mavjud bo'lgan. 1990-yilning dastlabki davrida esa mamlakatlarning umumiy soni 40 taga yetdi. Sobiq Ittifoq tarkibidan Boltiqbo'yi davlatlarining ajralib chiqishi, Yugoslaviya va Chexoslovakiyaning bo'linishi qit'ada mamlakatlar sonining ko'payishiga sabab bo'ldi. 1989-yilda ikki nemis davlatining qo'shilib, yagona Germaniya Federativ Respublikasining barpo qilinishi qit'a va jahon siyosiy xaritasida katta voqea bo'ldi.

XX asrning so'nggi 10 yilida Yevropa va jahon siyosiy xaritasida yana ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Ittifoq parchalanib, 12 ta yangi suveren davlatlar vujudga keldi.

Shulardan Yevropa davlatlari qatoriga Ukraina, Belarus va Moldova qo'shildi. XXI asrning dastlabki davrida jami 46 mamlakat mavjudligi qayd etildi.

Yevropa kichik mamlakatlar o'lkasidir. Aynan ana shu qit'ada jahondagi "mitti" mamlakatlar (Andorra, San-Marino, Monako, Vatikan, Lixtenshteyn) joylashganligini ta'kidlash mumkin. Yevropa jahon xo'jaligida sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, tovarlar va xizmatlar eksporti, oltin va valyuta zaxiralari, xalqaro turizm rivojlanganligi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi. Mashinasozlik va kimyo Yevropaning yetakchi sanoat tarmoqlari hisoblanadi. Qit'a mamlakatlari yuqori darajada rivojlangan transport infratuzilmasiga ega. Regionda transportning deyarli barcha turlari taraqqiy etgan.

Yevropa aholisi dunyo aholisining 9,8%ini tashkil etadi. Qit'a aholisi 2024-yil aprel holatiga ko'ra 778 mln kishini tashkil etdi. Fan - texnikaning rivojlanishi tufayli Yevropada ishlab chiqarishda qo'l kuchi o'rniga texnikalardan foydalanish aholi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini ma'lum darajada yaxshilanishiga olib keldi. 1700-yilda Yevropa aholisi taxminan 100 million kishi bo'lsa, 1800-yilda bu ko'rsatkich 150-160 millionga yetgan. Fransiya, Angliya, Germaniya va Ispaniya Yevropaning aholisi eng ko'p davlatlaridan bo'lgan. XIX asr Yevropa aholi takror paydo bo'lishida yangi bosqichga o'tgan. O'limning kamayib borishi, aholi o'rtacha umr ko'rish muddatining uzayishi va tug'ilishning nisbatan yuqori darajada saqlanib turishi aholining tabiiy ko'payishini yuqori darajaga olib chiqdi. XIX asrda Yevropadagi ko'p sonli aholiga ega bo'lgan davlatlar Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya aholisi 1,5-2 barobarga ko'paygan.

XX asr Yevropa aholisining takror barpo bo'lishida yangi bosqich bo'ldi. Yevropadagi qator davlatlarda XX asrning ikkinchi yarmida tug'ilish keskin kamayib bordi. Tug'ilish bilan bir qatorda o'lim hollari ham qisqardi. Aholining takror barpo bo'lishida yangi demografik o'tish davri boshlandi. Natijada, Yevropada aholi sonining o'sish sur'ati bir muncha kamaydi. 1900-1950-yillarda Yevropa aholisi har yili o'rtacha 1,8 million atrofida ko'paygan bo'lsa, 1970-2000-yillarda esa, bu ko'rsatkich 1,2 millionni tashkil etgan.

Yevropada murakkab demografik vaziyat mavjud bo'lib, u mamlakatlar va regionlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon miqyosida eng past darajadagi tug'ilish va tabiiy o'sish mavjud bo'lgan Yevropaga hozirgi vaqtda barqaror tarzda «Demografik qish» holati xosdir. Tug'ilish va tabiiy o'sish sur'atlari XX asrning ikkinchi yarmida keskin qisqardi. Tug'ilish 26-28 promilledan 11-13 promillega, tabiiy o'sish 16-18 promilledan 2-4 promillega tushganligini statistik ma'lumotlarda ko'rish mumkin.

Hozirgi vaqtda tug'ilishning nisbatan biroz yuqori ko'rsatkichlari Irlandiya, Lyuksemburg, Malta, Islandiya va Makedoniya mamlakatlariga xosdir. O'rtacha tug'ilish darajasi Avstriya, Shveysariya, Niderlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Gretsiya, Finlyandiya, Fransiya, Slovakiya, Shvetsiyada kuzatilmoqda. Shular bilan birga, tug'ilish darajasi keskin pasayib, tabiiy o'sish manfiy ko'rsatkichga ega (o'lganlar soni tug'ilganlar sonidan ortiq) bo'lgan mamlakatlar soni yildan-yilga ko'payib bormoqda. Bolgariya, Xorvatiya, Latviya, Litva, Ukraina, Ruminiya, Estoniya, Moldova, Vengriya shunday mamlakatlar jumlasidandir. Natijada, aholining mutlaq soni kamaymoqda.

Yevropa aholi o'rtasida umumiy o'lim koeffitsiyentining nisbatan yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Aholining yosh tarkibida kekxa yoshdagilarning ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlar (Germaniya, Shvetsiya, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Norvegiya, Finlandiya va b.) da yana ham yuqori darajaga egaligi bilan izohlanadi.

Yevropa aholi migratsiyasining ham yirik markazi hisoblanadi. Buyuk geografik kashfiyotlar davridan beri Yevropa aholisi okean orti mamlakatlarga ko'chib o'tadigan eng katta region hisoblangan. Bir asr davomida (1815-1914 yillar) emigratsiya 35-40 mln. kishini qamrab oldi. Ikkinchi jahon urushi davrida ayrim davlatlardan yoppasiga aholining emigratsiyasi kuzatildi.

1950-yillarining o'rtalarida G'arbiy Yevropada emigratsiya immigratsiyadan ustun kelgan, lekin keyinchalik ahvol keskin o'zgarib, G'arbiy Yevropa dunyodagi eng ko'p aholini qabul qilish markaziga aylanib qoldi. 1970-yillarning boshida immigrantlar soni 10 mln. bo'lsa, 1990-yillarning boshida ularning soni 15 mln.ga yetdi. G'arbiy Yevropaga aholining kelishi sabablari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin: Immigrantlar iqtisodiy foyda topish hamda mehnat va hayotning qulay sharoitlarning mavjudligidir. Kelgan immigrantlarning aksariyat qismi yirik sanoat rayonlarida va katta shaharlarda istiqomat qiladi.

Demografik vaziyati murakkab bo'lgan G'arbiy Yevropada quyidagi geodemografik tahlillarni ta'kidlash mumkin:

G'arbiy Yevropadagi demografik vaziyat tug'ilishning pastligi va aholi qarishining yuqori darajasi bilan tavsiflanadi, bu esa bir qator mamlakatlarda aholining tabiiy qisqarishiga olib kelgan. Umr ko'rish davomiyligi ortib bormoqda, ammo aholining tabiiy o'sishi past yoki hatto salbiy bo'lib qolmoqda.

O'rtacha umr ko'rishning yuqoriligi va tug'ilishning pastligi aholi tarkibida keksalar salmog'ining oshishiga olib kelgan. Ba'zi mamlakatlarda o'lim darajasi tug'ilishdan oshib ketib aholining kamayishi kuzatilmoqda. Migratsiya Yevropaning demografik dinamikasida muhim rol o'ynaydi, lekin uning ta'siri turli mamlakatlarda farq qiladi. Yuqori darajadagi urbanizatsiya aholi turmush tarzi va oilaviy qadriyatlarning o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Rivojlangan Yevropa qit'asi davlatlarida geodemografik muammolarning quyidagi oqibatlarini izohlanadi:

-Mehnatga layoqatli aholining kamayishi: bu esa iqtisodiy o'sishni va ijtimoiy rivojlanishni cheklaydi.

-Pensiya tizimiga demografik va iqtisodiy yukning ortishi: aholining qarishi ijtimoiy ta'minot tizimlari uchun qiyinchiliklar tug'diradi.

-Iste'mol shakllarining o'zgarishi: Iqtisodiyot va bozorlarning rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Umuman olganda, Yevropadagi demografik vaziyat murakkab muammo bo'lib, uni hal qilish uchun kompleks yondashuv, jumladan, oilalarni qo'llab-quvvatlash, tug'ilish darajasini rag'batlantirish, shuningdek, migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish; aholi ko'payishiga qaratilgan demografik siyosatni barqarorlashtirish; demografik vaziyatning holati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ommalashtirish kabi chora-tadbirlarni tadbir qilishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://countrymeters.info/ru/Europe>
2. Бердикулова М. Т. ГЕНДЕР ГЕОГРАФИЯСИНИНГ ИЖТИМОЙ ЖИҲАТЛАРИ //Экономика и социум. – 2024. – №. 5-2 (120). – С. 911-914.
3. Berdiqulova M. T. AHOLINI RO'YXATGA OLISHDA GEOGRAFIK VA DEMOGRAFIK MA'LUMOTLARNING O'RNINI //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-1 (94). – С. 29-32.
4. Бердикулова М. Т. ЕР ШАРИ АҲОЛИСИНИНГ ГЕОДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТИ //Экономика и социум. – 2022. – №. 10-1 (101). – С. 286-289.